

## IZOHLI LUG‘ATLARDA ATTORLIK LEKSIKASIGA OID SO‘ZLARNI BERISH TAMOYILLARI

*Soatmurodova Shoxista Zafar qizi*

*Termez state pedagogical institute, teacher*

[Shohistasoatmurodova4@gmail.com](mailto:Shohistasoatmurodova4@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi zamonaviy leksikografiyada dolzarb sohalardan biri bo`lib kelayotgan attorlik leksikasiga oid birliklarni o`rganish, va ularni izohli lug`atlarda berish tamoyillarini tahlil qilishga bag`ishlangan. Maqolada attorlik sohasiga oid leksik birliklar tanlab olingan bo`lib, ingliz va o`zbek tillari izohli lug`atlarida berish tartiblari to`g`risida fikr-mulohazalar misollar asosida keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** izohli lug`at, illyustrativ misollar, Transkripsiya, tamoyil, monografiya, bosh so`z, leksikografik izoh, leksema, attorlik.

**Annotation:** This article is devoted to the study of units related to the lexicon of the parfum, which is one of the relevant areas in modern lexicography, and the analysis of the principles of providing them in explanatory dictionaries. In the article, the lexical units related to the field of parfum are selected, and opinions about the procedures of giving in English and Uzbek explanatory dictionaries are given on the basis of examples.

**Key words:** explanatory dictionary, illustrative examples, transcription, principle, monograph, introductory word, lexicographic annotation, lexeme, parfum.

**Kirish.** Hozirgi zamonaviy lug`atshunoslikda normativ terminologik mahsulotlarni yaratish tamoyillari ko`plab qo`llanma, darslik, monografiyalarda batafsil tavsiflangan, biroq birinchi tili o`zbek tili bo`lgan ko`p tilli terminologik lug`atlarni tuzish tamoyillari batafsil tadqiq etilgan monografik ish bizga ma`lum emas. To`g`ri, ko`p tilli lug`atlarni tuzishning (masalan, ruscha-inglizcha, inglizcha-fransuzcha-ruscha kabi) ayrim masalalari yoritilgan dissertatsiyalar mavjud. Lekin bu ma`lum sohaga tegishli bo`lgan terminlarni qay tarzda lug`atlarda berish tamoyillarini yoritib berolmaydi. Dastlab har qanday lug`atning asosiy qismini tashkil etgan lug`at maqolasi haqida tushunib olsak. Odatda, izohli lug`at maqolasi quyidagi tuzilishga ega bo`ladi: (1) bosh so`z; (2) fonetik tavsif, (3) grammatik xarakteristika; (4) bosh so`z semantikasi; (5) bosh so`zning birikish qobiliyati; (6) so`zning yasash qobiliyati; (7) etimologik axborot; (8) illyustrativ misollar; (9) leksikografik izoh; (10) ensiklopedik axborot; (11) havola. Mikrotuzilma lug`at yozuvini, umuman olganda, lug`at bo`lgan murakkab mustaqil tizim doirasida alohida xilma-xil tizim

sifatida qurish muammolarini o'z ichiga olishi kerak. Bunga lug'atda tasvirlangan til birligi haqidagi turli xil ma'lumotlarning taqdimoti lug'at yozuvi hajmining formati (etimologik ensiklopedik semantik grammatik so'z yasaliş uslubiy illyustrativ va boshqa ma'lumotlar) kiradi. Lug'atning makrostrukturasi – lug'atning umumiy tuzilishiga tegishli strukturasi. Uning tashkil etuvchilari sifatida V.Dubichinskiy “Kirish so'z”, “Alifbo tuzilishi”, “Ideografik tuzilish”, “Lug'atning o'ng tomoni”, “Lug'atning chap tomoni”, “Lug'at ko'rsatkichlari” kabi qismlarni sanab o'tadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili** Lug'at maqolasining chap va o'ng qismi. Lug'at material, aniqroq aytadigan bo'lsak, lug'at maqolasining xarakterli xususiyatlaridan biri ularning shartli “chap” va “o'ng” qismlarga, ya'ni ma'lum birliklar ro'yxatiga va bu birliklar haqidagi ma'lumotlarga bo'linishidir. I.S.Kudashevning ta'kidlashicha, “chap tomon”da lug'at so'zligi, “o'ng tomon”da so'z/birikmalari izohi kabi an'anaviy talqin bir qator nazariy muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, bu umumiy qonuniyatni “bir tomonlama lug'atlar” (“o'ng tarafsiz lug'atlar”) – imlo, morfem, orfoepik, chastotali, ters lug'atlarning birliklariga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Ikkinchidan, agar lug'at maqolasi qismlarga bo'linsa yoki uyani tashkil qilsa, tavsiflanadigan birliklarning haqiqiy sonini hisoblashda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. “Lug'at maqolasi tarkibiga kirib ketadigan qo'shma so'z, frazeologik birliklarni lug'at birligi deb hisoblash kerakmi, yoki yo'qmi?” kabi bir qancha savollar tug'iladi. Yoki “Ikki tilli lug'atda boshqa tilga tarjima qilingan birlikdan foydalanish bo'yicha misollarni chap tomonga kiritish kerakmi yoki ular o'ng tomonga tegishli bo'ladimi?” Bu kabi savollar yechimiga lug'at tuzuvchi alohida diqqat qaratishi lozim bo'ladi.

**Tadqiqotning metodologiyasi.** Bunday nazariy va amaliy muammolarning mavjudligi lug'atning chap va o'ng qismlari haqidagi an'anaviy qoidalarni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Biz, lug'at muallifi lug'at maqsadidan kelib chiqqan holda qaysi tushunchani izohlashni nazarda tutayotgan bo'lsa, o'sha ma'lumot chap tomonda, qolgan barcha ma'lumotlar lug'atning qayerida joylashishidan qat'i nazar, bu ma'lumotni “o'ng tomon” sifatida ko'rib chiqishni taklif qilamiz.

**Tahlil va natijalar.** Aynan, izohli lug'atlarda attorlik leksemalarini qay tartibda berilishini quyidagi so'zlarni tahlil qilish orqali yanada yaxshiroq bilib olishimiz mumkin.

АТИР [а.-хушбўй модда] Хушбўй моддаларнинг спиртдаги эритмасидан иборат косметик суюқлик. *Бир шиша атир. Атир иси. ти Бозоров «Ландиш» атиридан юзига, сочига, кителининг ёқасига суртди.* И. Раҳим, Чин муҳаббат

1. Lug‘at maqolasining bosh so‘zdan keying komponenti bosh so‘zning etimologiyasi haqidagi ma‘lumotlardir.

Etimologik xususiyati ko‘rsatilgan ya‘ni izohdagi a-uslubiy belgi arab tilidan kelib chiqqanligiga ishora beradi.

2.Manbalardan keltirilgan misollar tuzuvchi tomonidan berilgan misollar hamda maqol va matallardan to‘rtburchak shakli < > bilan ajratiladi.

3.Atir mustaqil tub so‘z hisoblanadi.

4.Og‘zaki va yozma nutqda ko‘p qo‘llaniladigan so‘z hisoblanadi.

5.Gramatik harakteristikani qayd etuvchi belgi qo‘yilmagan.Hech qanday belgisiz qaysi so‘z turkumiga ega ekanligi ma‘lum bo‘lsa qo‘yilmaydi.

АТИРСОВУН Юз-қўл ювадиган хушбўй совун. *Обдаста билан дастийўй олиб кириб, Ҳафиза қўлини атирсовун билан ювдирди.* Мирмухсин. Умид.

1. Adabiy tilga oid yasama so‘z hisoblanadi.

2. Biror so‘z yasalishi asosidan hosil qilingan yasama so‘zlarga zarurat bo‘lmagan hollarda etimologik ma‘lumot berilmaydi. Faqat so‘z yasalishiga asos bo‘lgan so‘zgagina beriladi.

3. O‘zlashma qo‘shma so‘zlarning qismlari lug‘atda alohida-alohida bosh so‘z qilib berilgan bo‘lsa ularga etimologik ma‘lumot berilib,qo‘shma so‘zning o‘ziga bunday ma‘lumot berish shart bo‘lmaydi. Masalan: atirsovun so‘zining atir va sovun qismlariga etimologik ma‘lumot berildi. Lekin, atirsovun qo‘shma so‘zning o‘ziga esa shart emas.

МИЛ I-сурмачўп; пардоз қала-ми; учи ингичка, ўткир асбоб] 1 Милтиқ, тўппонча каби отиш қуролларининг ўқоти-либ чиқадиган найсимон қисми. *Меҳмонхо-нанинг қатор уч эшиги милтиқ мили сигар-лик ўлчакда бир неча жойдан тешилди.* С.Айний, Қуллар.

2 Баъзи асбоб ёки нарсаларнинг найси-мон қисми. *Солиҳбой.. атрофга олазarak иа-зар ташлаб, чилим милининг учини ушлаб че-кади, ўзи эса Жамиладан кўзини узмайди.* Ф.Жўраев, Обид Жалилов.

МИЛ II-Турли ўлчов ва назорат асбобларининг ўз ўқи атрофида айланиб, ўлчанаётган нарса микдорини кўрсатувчи бош қисми, ясси ва учли қисми. *Соат мили. Компас мили. шш Рўпарадаги юмалоқ тарози циферблати устидаги мили ҳаракатга кел-ди.* С.Анорбоев, Йўлда йўлдош бўлганлар. *..дарвозанинг пештоқидаги электр соатнинг миллари ноль-нолни кўрсатиб туради.* М.Хайруллаев, Тилла маржон.

МИЛ III-Тоғлар, океанлар, миллар ошди у. А.Мухтор.

МИЛ IV-Учи ингичка, кескир темир асбоб (тарихда: қиздириб, киши кўзи-ни кўр қилиш учун ишлатилган). *Бобур дар-возадан кирсин, кейин туттириб, кўзига мил тортирмақ керак.* П.Қодиров, Юлдузли тунлар.

МИЛ V-Ўсма, сурмда қўйиш учун ишлатиладиган асбоб, сурмачўп. *Қошингинг қоралиги милданмиди, Белингинг нозиклиги қилданмиди?* М.Алавия, Халқ кўшиқлари.

1. Omonimlar alohida-alohida soʻz sifatida raqamlar bilan nuqtasiz bosh soʻz qilib beriladi.

2. Birdan ortiq maʼnoga ega boʻlgan soʻz maʼlum bir maʼnosi yoki maʼnolari bilan chegaralangan qatlamga mansub boʻlsa, uslubiy belgi shu maʼnosi yoki maʼnolarining izohidan oldin qoʻyiladi.

3. Soʻzning biror shakli shu shaklga xos maʼno va vazifa kasb etgan boʻlsa shu shakl bosh soʻz sifatida beriladi va har bir maʼno vazifasi qayd etiladi.

4. Tarixiy soʻz boʻlib, oʻtmishni yoritish va tasvirlashga oid ishlarda qoʻllanadigan soʻz

5. Etimologik xususiyati koʻrsatilgan. Bosh soʻzdan keying komponenti bosh soʻzning etimologiyasi haqidagi maʼlumotidir. Etimologik maʼlumot qardosh boʻlmagan chet til soʻzlariga beriladi. Bunda muayyan soʻz asli mansub boʻlgan til (shartli qisqartma bilan) soʻzning shu tildagi yozilishi va maʼnosi qayd etiladi.

УПА 1 Гигиена ва косметика мақсад-ларида ишлатиладиган хушбўй ва нихрятда майин кукун. *Ёхуна. Уна қутичаси. Уна қўй-моқ. тт Бозоров яшиқларни очиб қўйди: оқ-қанд, конфет, совун, атир, уна.. Буларнинг муаттар ҳиди гуркураб, димоққа уриб, қиз-ларни қувонтириб юборди.* И. Раҳим, Чин му-ҳаббат.

2 кўчма Упага ўхшаш майин кукун ҳа-қида. *Юзингизда чангни кўрдим Гўё бўз ер упаси.* П.Мўмин. *Упаси кўпроқ гуручни 4-5 мартаба эринмай ювиши зарур.* К. Маҳмудов, Ўзбек тансиқ таомлари.

1. Soʻzning biror shakli shu shaklga xos maʼno va vazifa kasb etgan boʻlsa, shu shakl soʻz sifatida berildi va har bir maʼno vazifasi qayd etildi.

2. Bosh soʻz toʻgʻri va koʻchma maʼnolarga ega boʻlsa toʻgʻri maʼnosi avval, koʻchma maʼnosi undan keyin beriladi.

ГОЗА аёллар юзига сурадиган қизиллик, элик] эск. Юзга суриладиган, қи-зил рангли пардоз буюми; элик. *Гапга туш-мас тамизи йўқ бемаза, Сулувнинг бетига ярашар гоза. «Ойсулув». Бунча юзга гоза су-риб, Зеб берасан ўзингга.* Уйғун.

1. Tarixiy soʻzlardan oʻtmishni yoritish va tasvirlashga oid ishlarda qoʻllanadi(chegaralangan leksika).

2. Lugʻat maqolasining bosh soʻzdan keying komponenti bosh soʻzning etimologiyasi haqidagi maʼlumotdir. Gʻoza fors tilidan kelib chiqqan.

Umumiy maqsadlarda qoʻllanuvchi bir tilli (onlayn) lugʻatlar sirasiga tubandagi mahsulotlar mansub boʻla oladi:

1. Ingliz tilining Amerika merosi lugʻati.
2. Merriam-Webster ingliz tili lugʻati.
3. Oksford ingliz tili lugʻati (20 tomlik izohli lugʻat).
4. WordNet English Dictionary va Thesaurus.
5. Ultralingua English Language Dictionary.
6. Rus tilining izohli lugʻati (S.I.Ojegov, N.Y.Shvedova tahririda).
7. Rus tilining izohli lugʻati (D.N.Ushakov tahriri)

Keling attorlikka oid leksik birliklarni yuqoridagu lugʻatlarda kelish holatlarini tahlil qilamiz:

Merriam-Webster ingliz tili lugʻati.

Lipstick-noun, lip·stick 'lip-,stik Synonyms of *lipstick* : a waxy solid usually colored cosmetic in stick form for the lips also : a stick of such cosmetic with its case. lipsticked 'lip-,stik adjective

1. Ushbu lugʻatda soʻzlarning gramatik xususiyatiga koʻra qaysi soʻz turkumiga tegishli ekanligi koʻrsatiladi. Va qoʻshimcha qilib, boshqa soʻz turkumlarida ifodalanish shakli ham beriladi

2. Transkripsiya yaʼni soʻzni qanday talaffuz qilinishi koʻrsatiladi

3. Soʻzning sinonimi beriladi.

4. Ushbu soʻzga taʼrif beriladi.

Oksford ingliz tili lugʻati

Lipstick- *noun*, /'lɪpstɪk/ [uncountable, countable]

1. a substance made into a small stick, used for colouring the lips; a small stick of this substance

*She was wearing bright red lipstick.*

Oxford ingliz tili online lugʻatida quyidagi tamoyillarga koʻra soʻzlar beriladi:

- Grammatik xususiyatiga koʻra qaysi soʻz turkumiga tegishli ekanligi;
- Transkripsiya yaʼni soʻzning qanday talaffuz qilinishi hamda audio holati ham beriladi
- Illustratsiya ham beriladi
- Qidirilayotgan terminga oid misollar ham beriladi

WordNet English Dictionary va Thesaurus.

Ushbu lugatda esa soʻzlarning berilishi quyidagi bosqichlarga amal qiladi:

- Qidirilayotgan soʻzning izohi beriladi
- Qaysi soʻz turkumlarda kelishi va maʼnosi izohlanadi
- Misollar tariqasida yanada mukammolroq tushuntiriladi .

Yuqorida keltirilgan elektron lugʻatlar bilan tanishish jarayonida ularning interfeysi, arxitekturasi, dizayni, qidiruv tizimi imkoniyatlari, soʻzlikni qamrab olish darajasi kabi parametrlarini qiyoslab tahlil qildik. Umumiy qilib aytadigan boʻlsak, lugʻat yaratish ichki va tashqi aloqalar yigʻindisidagi murakkab tizimni loyihalash va uning tarkibiy qismlarini tashkil etishni oʻz ichiga oladi. Shuningdek, elektron lugʻat tuzishning muhim bosqichlari texnologik va konseptual boʻlib, bu tuzuvchidan alohida ahamiyatli yondashuvni talab qiladi. Aks holda zamonaviy leksikografiya talablariga javob bermaydigan mahsulot yaratilishiga olib kelishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Александровская Л.В. Семантика термина как члена общелитературной лексики (на м-ле английской морской терминологии): Автореф. дис. канд. филол. наук М., 1973. – 24 с.;
2. Н.Бушин И.В. Формирование вторичных терминосистем и их специфика (на материале терминологии судебной медицины рус. и англ. яз-в): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Саратов, 1966. – 16 с.;
3. Гаврилина И.С. Моделирование и когнитивные основания терминосистемы профилактической токсикологии в современном английском языке: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1998. – 24 с.;
4. Казыро Г.Н. К проблеме лингвистического термина (на материале лексикологической и семасиологической терминологии французского и немецкого языков): Дис. на соиск. учен. степ. канд. филол. наук. – М., 1980. – 185 с
5. Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. – Вена-Харков, 1998. – 160 с. – С.90
6. Кудашев И.С. Проектирование переводческих словарей специальной лексики // Helsinki University Translation Studies. – Monographs 3. – Helsinki, 2007. – 445 с. – С. 36
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: - Т.: Ў 16 "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашр, 2006.
8. Qulmamatova Muattar Otabek qizi. (2023). The Role of Concept in Linguistics. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious

and Cultural Studies (2993-2599), 1(10), 50–53. Retrieved from

<https://grnjournal.us/index.php/AJRCS/article/view/1861>

9. Soatmurodova Shoxista Zafar qizi. (2023). ANALYSIS OF THE BORROWINGS RELATED TO THE FIELD OF “ATTAR” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 95–97. Retrieved from

<https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/966>

10. Soatmurodova Shoxista Zafar qizi. (2022) . Term and its specific Language properties In the Field of Cosmetics (2660-6828), 3(5), 108-111. Retrieved from

<https://doi.org/10.1765/cajpls.v3i5.277>